


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJIRIYATIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA TABIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG'LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O'TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G'OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o'g'li XORAZM VOHASI VA G'ARBIY SO'G'D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR'ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O'RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA'S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O'ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O'ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich-
Xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy
o‘rganish YUNESKO” kafedrası doktoranti
abdullayevabdurasul155@gmail.com

QUR’ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670173>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aqliy tafsirlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari Islom ta’lmotida alohida va serqirra, mavzulardan biridir ekanligi, tafsirlar orasida esa ishoriy tafsirlar alohida o‘ringa ega ekanligi, ishoriy tafsirlarda mufassir, zohir bo‘lib turgan ma’no o‘rniga o‘ziga ma’lum bo‘lgan, hammaga ham ma’lum bo‘lavermaydigan ma’no asosida oyatlarni sharhlashligi bayon qilingan. Shuningdek, tasavvuf olimlaridan Najmiddin Kubroning “at-ta’vilot an-najmiya” va Hakim Termiziyning “Kitob tafsir al-Qur’on al-musammo baxr at-tafsir” nomi asarinidan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ishoriy tafsirlar, tariqat, zohiriy ma’no, botiniy ma’no, hadis, Qur’on karim oyatlari, huruf muqattaotlar, tasavvuf, mufassir.

Абдуллаев Абдурасул Абдулпаттоевич –
докторант кафедры «Религиоведение и сравнительное изучение мировых религий
ЮНЕСКО» Международной академии исламоведения

РОЛЬ ИШАРИЙСКИХ ТАФСИРОВ В ТАВИЛЕ АЯТОВ КОРАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы исследования рациональных (умозрительных) тафсиров в исламском учении, подчёркивается, что среди различных видов тафсира особое место занимают ишарийские (аллегорические, эзотерические) толкования. В ишарийских тафсирах мufassir объясняет аяты не на основе очевидного (захир) смысла, а на основе скрытого (батин), известного ему внутреннего смысла, который не всегда понятен всем. Также приведены примеры из трудов таких выдающихся суфийских учёных, как Нажмиддин Кубро («ат-Ta’вилат ан-Нажмийа») и Хаким Термизий («Китаб тафсир аль-Куръан аль-мусамма Бахр ат-тафсир»).

Ключевые слова: ишарийские тафсиры, тарикат, захир, батин, хадис, аяты Корана, хуруф мукатта’а, тасаввuf, мufassir.

Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich –

Doctoral student at the Department of “Religious Studies and Comparative Study of World Religions (UNESCO)” of the International Islamic Academy

THE ROLE OF ALLEGORICAL EXEGESIS IN INTERPRETING THE VERSES OF THE QURAN

ANNOTATION

This article describes that the theoretical and methodological foundations of research on mental interpretations are separate and expressive, one of the topics in Islamic interpretation, and among interpretations Ishari interpretations have a special place, interpretation of verses on the basis of meaning known to oneself, not known to everyone, instead of mufassir, manifested meaning in Ishari interpretations. Examples are also given from mysticism scholars Najmiddin Kubro's “at-Ta'vilot an-najmiya” and Hakim Termisi's “Kitab tafsir al-Quran al-musammo bakhr at-tafsir”.

Key words: Ishari tafsir, tariqat, apparent meaning, botanic meaning, Hadith, Quranic karim verses, huruf muqattaotlar, sufaf, mufassir

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Tafsir ilmi Qur'oni karim m'anolarini chuqur o'rganishga bog'liq bo'lgani ilmlar majmuasi. Shuning uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu ilmi Qur'oni karimning hidoyati, ta'limoti va ko'rsatmalari hamda hukmlarini o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu ilmsiz islomiy bilimlarni bilish va ularga amal qilish mumkin emas. Aqliy tafsirlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari Islom ta'limotida alohida va serqirra, mavzulardan biridir. Ayrim mufassirlar bu sohani mutlaq ravishda ijobiy, aql va vahiy uyg'unligining namunasi sifatida baholashga urinadi. Mufassir Qur'onning ruhini anglashda zamonaviy inson ongi, tafakkuri bilan yondoshishga harakat qiladi, biroq uning muvaffaqiyati inson aqlining chegaralari va vahiyning mutloq mohiyatini e'tirof etishga bog'liq. Ushbu nuqtai nazar metodologik jihatdan o'rinli, chunki aql va vahiy o'rtasidagi murakkab munosabatni nazariy darajada emas, balki amaliy va tanqidiy tadqiq etish zarurligini anglatadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Qur'oni Karim oyatlarini tafsir qilish bir necha qismlarga bo'linadi:

1. “Tafsir bil ma'sur”. Bu qismdagi tafsirda mufassir Qur'on oyatlarini rivoyat qilgan sahih hadislar va sahobalarning qavl (so'z)lari bilan tafsir qiladi.
2. “Tafsir bir-ray”. Bu qismda mufassir o'z fikri va ijtihodi ila tafsir qiladi va u ikkiga, joiz va g'ayri joizga bo'linadi
3. “Tafsiri ishoriy” [1]. Bu qismda mufassir oyatning zohiriy ma'nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan tafsir qiladi.

Insoniyat ma'naviy olamida eng yetuk va eng murakkab ta'limot tasavvuf ilmiy ta'limotidir. Tasavvuf ta'limoti Ollohga intilish bo'lib, o'zligini anglab, qalbining ochilmagan imkoniyatlarini ishga solish, bu bilan Ollohning ilohiy nuridan bahramand bo'lish uchun inson, o'z ruhini Ollohga yaqinlashtiradi.

Tariqat ilmi o'zi uchun mujassamlashtiradigan odob – ahloqdir. Ma'rifat ilmi avliyolarning o'zini anglab yetishi sari yo'l tutishi, nafsni tiyishi, o'zlikni yo'qotishidir. Haqiqat ilmi esa o'z ruhini Tangri qudrati bilan bog'lashdir.

Ishoriy tafsirlarda mufassir, zohir bo'lib turgan ma'no o'rniga o'ziga bilingan ishoriy, ya'ni hammaga ham ma'lum bo'lavermaydigan hamda ishora orqali tushuniladigan ichki ma'no asosida oyatlarni sharhlaydi. Biroq bu kabi tafsir kitoblarida oyatlarning zohiriy ma'nosi bilan ishoriy ma'nolari bir-biriga aslo zid bo'lmaydi, ularni bog'lash imkoniyati mavjud bo'ladi, zohiriy ma'nolar aslo inkor qilinmaydi [2]. Tarix fanlari doktori, proffesor Davron Maqsudov: “Ishoriy tafsirlar izohning qisqaligi, oyatning mazmunini anglatuvchi iboralarga mukammal naqliy va ishoriy tafsir qilish bilan ajralib turadi” [3] deb ta'rif dergan.

Ishoriy tafsirlar, faqat suluk va tasavvuf arboblarning uslubidir. Ishoriy tafsirlarda Qur'oni Karim oyatlariga asoslanib, avval Payg'ambar (s.a.v.)dan so'ng sahobalardan Abdulloh ibn Abbos (r.a.), Abdulloh ibn Ma'sud (r.a.) kabi yetuk sahobani so'zlarini asos qilib, botiniy ma'nolarini

izohlab beriladi. Hasan Basriy (641-728), Ibrohim ibn Ahmad (718-777), Junayd Bog'dodiy (830-910) kabi mutasavvif olimlar Qur'oni karim oyatlarini sharhlashda ishoriy ma'nolardan foydalanib, gohida e'tirozga ham uchraganlar.

Ishoriy tafsir borasida islom ulamolar orasida turli qarashlar mavjud bo'lgani kabi, G'arb tadqiqotchilarining o'ziga xos fikrlari aytilgan. Sharqshunos olim Reynold Nikolsonning (1868-1945) fikricha, ishoriy tafsir asosli biror narsani ifodalaymaydi, balki bu uslub xuddi "Shia" yo'nalishida yozilgan tafsirlar bilan bir xildir. Ikkala yo'nalish vakillari ham oyatning zohiriy ma'nosidan uzoqlashganlar, deb aytadi. Undan tashqari, olim ishoriy tafsirni sharhlab: "So'fiylar suralarni tafsir qilish, har bir oyatning zohiriy ma'nosi bilan birga, uning yashirin botiniy ma'nosi ham bo'lib, undan Allohning xos bandalari xabardor bo'ladi, degan e'tiqod bilan shialarga ergashganlar. Shu sababli ular oyatning zohiriga umuman teskari ma'nodagi so'zlarni aytganlar", degan fikrni bildirgan.

Shayx Ahmad Dehlaviy "الفوز الكبير في اصول التفسير" - Al-favzu-l-kabir fi usuli-t-tafsir asarida aytadi: "Ishoriy so'fiy tafsirlar tafsir ilmining asli emas, balki Qur'oni Karim iste'molidan solihlarni (avvalgi mufasssirlar) qalblarida tasavvufiy holatlarni paydo bo'lishi orqali vujudga kelgan ilmdur. Bamisoli, Layli va Majnun qissasini eshitgan kishi ularning ishq-muxabbati, ularni munosabatlari haqida eshitganlariga suyanib gapirganiga o'xshaydi". Shayx Ahmad Dehlaviy yuqoridagi asarida ilmi ma'oniylar va ilmi bayon haqida quyidagicha yozadi: "Ilmi ma'oniylar va ilmi bayon, sohobiy va tobiinlar asridan keyin vujudga kelgan yangi ilmdur".

Ishoriy tafsirlar yozilgan kitoblarda oyatlarning zohiriy bilan ishoriy ma'nolari bir-biriga aslo zid bo'lmaydi, ularni bog'lash imkoniyati mavjud bo'ladi, zohiriy ma'nolar aslo inkor qilinmaydi. Bu qismga doir tafsirlar: Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning "G'aroibul Qur'on va rag'oibul Furqon", Sheroziyning "Aroisul bayon fi haqiqiql Qur'on", as-Sulamiy (vaf. 412/1021) qalamiga mansub "Haqiqatut tafsir", Abdulkarim Qusayriy (vaf. 1072), "Latoiful ishorat"; Ahmad Muhammad Maybudiylar, "Kashful asror", Hakim Andalusiy (vaf. 1141), "Tanbihul afham", Abu Muhammad Ro'zbehon (1128-1209) "Aroisul bayon fi haqiqiql Qur'on", va Najmiddin Kubroning "at-ta'vilot an-najmiya" va Xakim Termiziylar "Kitob tafsir al-Qur'on al-musammo baxr at-tafsir" nomi asarini keltirish mumkin.

Mufasssirlar ray bilan tafsir qilish borasidagi ijthod samarasi shuki, ilk asrlarda Qur'oni karimni tafsir qilish borasida, yuksak ilmiy salohiyat, chuqur bilim va falsafiy mushohada qilish doirasida ra'yni ishlatishni taqozo etadi. Buni naql va aqlni birlashtirish ham, deyiladi. Ya'ni, saodat asri, sahoba, tobein va taba tobeinlarning ulkan salohiyati va chuqur ilmiga asoslangan uslubi ray va aql yordamida rivojlantiriladi. Bunda esa mufasssirdan nihoyatda ulkan salohiyat talab etiladi va birinchi uch asrdagi barcha ilmiy yunalishlar va ularning xaqiqatidan xabardor bo'lishi lozim sanaladi.

Shu o'rinda tafakkur qilsak, ishoriy tafsir ilmi ham ma'nan Qur'onning nozil bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa-da, uning ommalashuvi tadvin davridan keyinga to'g'ri keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ibn Naqibdan rivoyat qilinadi: "Zohir bu ahli ilmlar uchun Qur'onning ma'lum ma'nolaridur. Botin bu ahli xaqiqat uchun Qur'onning ma'lum bo'lgan sir-asrorlaridur". Bu fikr Qur'oni karimning zohiri va botini haqida aytilgan fikrlarning mashhuridir [4].

Hakim Termiziylar (835-932) ham Movarounnahrda birinchilardan bo'lib, ishoriy tafsir yozgan. Muhammad Vositiylar (vaf. 942), as-Sulamiylar (vaf. 412/1021) qalamiga mansub "Haqiqatu-t-tafsir", Abdulkarim Qusayriylar (vaf. 1072), "Latoifu-l-ishorat"; Ahmad Muhammad Maybudiylar, "Kashfu-l-asror"; Hakim Andalusiy (vaf. 1141), "Tanbihu-l-afham"; Abu Muhammad Ro'zbehon (1128-1209) "Aroisu-l-bayon fi haqiqu-l-Qur'on" nomli asari bo'lib, Najmiddin Kubroning "at-Ta'vilot an-najmiya" asariga manba bo'lib xizmat qilgani aniqlangan.

Hakim Termiziylar tafsirida uslub yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- a) barcha tafsirlarda bo'lgani kabi oyatlarni zohiriy tushunish;
- b) botiniy ma'nolarini tasavvufiy tushunchalar bilan bayon qilish;
- v) arab harflaridan ishora olish;
- g) Allohning ismi va sifatleri ilmining asli harflaridir deb qarash.

Bundan kelib chiqib, Hakim Termiziyning mazkur tafsirini Movarounnahrda dastlabki tasavvufiy tafsirlardan, deb aytish ham mumkin [5].

Oyatlarni sharhlashda hadislarining o'zni muhimligi muhaddislar tafsir ilmidagi ham mohir bo'lishiga sabab bo'lgan.

E'tiborli jihati shundan iboratki, Hakim Termiziy barcha asarlarida keltirgan fikr va mulohazalarini Payg'amba Muhammad (a.s.)ni hadislarini va Qur'on karim oyatlaridan unumli foydalanib kengroq yoritishga harakat qilgan. Uning sharhlash uslubida naqlga tayanib tafsir qilishdan ko'ra, oyatlarni ta'vil qilish, tasavvufiy sharhlash ma'nolarining botiniga ko'proq e'tibor qaratish kuchli ekanligini kuzatish mumkin. Masalan: Hujurot surasi 7-oyatida kelgan ma'noga shunday sharh beradi: *حَبْلُكُمْ الْإِيمَانُ وَرَبُّهُ فِي قُلُوبِكُمْ* “U (Alloh) sizlarga imonni suyuqlik qildi va uni qalblaringizda ziynatladi”[6]. Ushbu oyatidagi qalbni “Qalb bu bir parcha botiniy va bir parcha zohiriy narsadir. Uni “fuad” ham deyiladi. Unda ikki ko'z va quloq bor. Qalbni Alloh o'zi buruvchidir”, ya'ni qalbdagi imon aql bilan bezatilgandir. Kofirga esa bu narsa ato etilmagan. Uning qalbidagi imon muhabbatsiz va bezaklarsiz qolib ketgan. Kofir o'ziga berilgan ziynat ila vasvasa qilinib, hatto Allohga shirk keltirishgacha, Undan boshqasiga ibodat qilishgacha boradi. Albatta, bu o'rinda savol tug'iladi kofir kimsada iymon bormi?, degan. Bunga javoban (Uning qalbidagi imon muhabbatsiz va bezaklarsiz qolib ketgan) degan so'zda “miysoq” kuniga ishora bor. Alloh taolo A'rof surasi 172-oyatida: *أَلَمْ نَكْنِمْ بَرِيكُمْ قَالُوا بَلَىٰ* “Men Robbingiz emasmanmi?”(dedi). (Ular): “Yo'g'e (robbimizsan)”, - dedilar. Chunki Alloh taolo ruxlarni yaratgan vaqtida ulardan ahdlashuvni (ya'ni O'zining yagona parvardigor ekanligini tasdiqlab) olgan edi.

Shunday qilib, Hakim Termiziy o'zining ham Qur'oni karim ma'nosini talqin qilish, hadislarini sharhlash va fiqhiy masalalarga amal qilishda tasavvuf yo'lidan borganligini ta'kidlaydi, tasavvuf yo'li kishi vijdoniga — qalbiga orom beradigan yagona yo'l deb izohlaydi. Mana shu tarzda ta'limotlarni yaratgan Hakim Termiziy hazratlari IX— X asrning buyuk diniy olimlaridan va islom dini ta'limotlarini ilmiy asosga tayangan holda yanada chuqurroq talqin qiluvchi, shariatning benazir arboblardan biri sifatida butun musulmon olamida shuhrat qozondi.

Shuningdek, Najmiddin Kubro “At-Ta'vilotun najmiya fi-t-tafsiril ishoriyis sufiy” asari “Baqara” surasining 249-oyatida “Tolut askar bilan chiqqanda: “Albatta, Alloh sizni daryo bilan sinovchidir, kim undan ichsa, mendan emas. Kim uni tanovul qilmasa, u albatta, mendandir. Magar bir qo'li bilan bir ho'plam ho'plasa, mayli”, – dedi” [7]. Najmiddin Kubro bu oyatdagi ishorani, albatta, Alloh taolo xalqni dunyo anhuri bilan, suvni esa, unga ziynat qilish bilan sinamoqda, – deydi. Qur'oni karimda: “...kim bundan ichadigan bo'lsa mendan emas. Kim undan tanovul qilmaydigan bo'lsa, mendandir”, deya, ular mening do'stlarimdan, suyuqli insonlarimdan menga qarindoshlikda eng yaqin bo'lgan kishilarimdan, meni xulqim bilan xulqlanadigan, mendagi karomatni his qiladigan zotlardan bo'ladi, degan ma'noda izohlaydi. Payg'ambar (s.a.v.) aytadilar: “Men Alloh tomonidan yuborilgan kishiman. Mo'minlar esa, mendan, deb “(U anhoran) bir hovuch bo'lsa mayli...” oyatini keltirib, kim dunyo matosidan o'zini ehtiyojiga yarsha yeyish, ichish, kiyish, o'ziga maskan tutish va shunga o'xshash narsalarda o'ziga kerakli bo'ladigan narsalarda qanoat qiladigan bo'lsa, men ular tomonidaman dedi. “Tavba” surasining 123-oyatida: “Ey Iymon keltirganlar! Sizlarga yaqin bo'lgan kofirlarga qarshi jang qiling. Ular sizdagi shiddatni ko'rsinlar. Va bilingki, albatta, Alloh taolo taqvodorlar bilan birgadir” [8]. Bu oyatdagi “Ey iymon keltirganlar...” Alloh O'zini izni bilan ularga buyurgan ishida Muhammad (s.a.v.)ga ishoninlar. “...Sizlarga yaqin bo'lgan kofirlarga qarshi jang qilinglar...”, ya'ni kofir bo'lgan nafslarga uning sifatlariga qarshi va havo nafsni sifatlariga xilof qilish uni isloh qilishga, o'zgartirishga, nafsni Alloh taoloning toatiga, to'g'ri yo'lga va uning yo'lida harakat qilinglar. Chunki nafs Allohni ibodatlaridan to'sib qo'yuvchidir, deb sharhlaydi Najmiddin Kubro [9].

Ba'zi mufasssirlar huruf muqattaotlardan ishoriy ma'nolar bor deytilar, ba'zi musulmon ulamolar huruf muqattaotning ma'nolarini tushuntirishga urinish mumkin deb hisobladi. Ularning fikriga ko'ra, agar bu harf birikmalari aniq ma'noga ega bo'lmaganida, ular kerak bo'lmas edi va ular Alloh tomonidan nozil qilinmagan bo'lar edi. Shu sabablarga ko'ra, ulardan ba'zilar allegoriya [10] usullaridan foydalangan holda huruf muqattaot ma'nolarini tushuntirishga harakat qilishdi. Ammo ular bir fikrga kelmadilar. Shuning uchun ushbu harf birikmalarining 20 ga yaqin turli xil

talqinlari ma'lum. Shunday qilib, ba'zi olimlar huruf muqattaot Allohning ba'zi muhim va atributi va fazilatlarini ifoda yetgan deb ishonishgan. Masalan, ularning fikriga ko'ra, Baqara surasini avvalida kelgan “Alif” “lam”, “mim” harflarining kombinasiyasi “Alloh” “Latif” “Majid” ilohiy ismlarini ko'rsatadi. Boshqa olimlar bu harflar Allohning bir nechta atribut ismlarini ifodalagan deb ishonishgan. Misol uchun, alif, lam, mim harflarining bir xil birikmasida “alif” harfi – Ahad, Avval, Ahir, Azal va Abad kabi ilohiy ismlarini bildisa, “lom” – Latif va “mim” – Malik, Majid, Mannan kabi ismi sifatlariga dalolat qiladi, dedilar.

Ba'zi mufasssir olimlar “Fatxu al-Bayon lil-qanujiy” tafsir kitobida bu harflarga abjad hisobi [11] bo'yicha ma'no bergan. Masalan: “Alif”dan 1-ni, “Lom”dan 30-ni, “Mim”dan 40-raqamini iroda qilinadi, shunda buning ma'nosi yagona bo'lmish Olloh taolo 30 pora Qur'oni karimni payg'ambari Muhammad (a.s.) 40 yoshga yetkanida nozil qildi, deb ta'vil qilganlar. Zayd ibn Aslam bu xarflar suralarni ismi desa, Kalbiy bu qasam harflari Allah taolo bu harfning fazli va sharafiga bilan qasam ichadi, dedi.

Hakim Termiziy “ilmul huruf” yo'nalishida olib borgan faoliyati juda samarali bo'lgan. Ilm – bu ismlardir (narsalarning nomlari), ilmning asli esa harflarda yashiringan. “Ilmul huruf” – “hikmatul ulya” deb ataluvchi yuksak ilmlardan bo'lib, uni bilganlarga “olimul ulamo” deyiladi [12]

Hakim Termiziy “Tahsil nazoir al-Qur'on” asarida الهدى “al-huda” lafzining 15 ta ma'nosini ko'rsatadi, lekin undan yagona so'z “moyil bo'lish, og'ish” hosil bo'ladi, deb, “biz Senga moyil bo'ldik” (A'rof, 156), oyatdagi shaklida sharhlaydi. So'ngra: “هدية” “hadya” deyilishi ham, hadya beruvchiga ko'ngling moyil bo'lgani uchun shunday deyiladi. Qalb tana a'zolarining amiri, agar Alloh uni nuriga hidoyat qilsa, ya'ni nuriga moyil qilsa, hidoyat topadi, ya'ni moyil bo'ladi. Alloh taolo Nur surasi 35 oyatida shunday: “Alloh taolo O'z nuriga xohlagan kishilarni hidoyat qilur (ya'ni moyil qilur)”, - dedi. Mana shu so'zning asl ma'nosidir” – deb xulosa qiladi. Shundan so'ng Termiziy الهدى “al-huda” lafzining lug'at kitoblaridagi o'n besh ma'noviy ko'rinishini, ya'ni vajhini keltiradi – bayon, islom, tavhid, din, duo, basira, ma'rifat, Qur'on, rasul, rushd, savob, taqvo, tavfiq, tavba, yo'lak. Bu so'zlarni o'zi ishora qilgan “moyil bo'lmoq” degan asliy ma'nosi bilan bog'lab izohlaydi. Masalan, الهدى “al-huda” lafzi bir joyda “duo” bo'lib keldi, agar banda Robbisiga nurli qalb bilan duo qilsa, (boshqa) qalblar u nurga moyil bo'ladi. Chunki bu so'z uzra nur bor, zero u munavvar qalbdan chiqyapti [13]. Shuningdek, Hakim Termiziy qomusiy olim sifatida tafsir, fiqh, hadis ilohiyot, til va tasavvuf ilmlarida samarali ijod qilgan. Uning ko'pincha oyat sharhlariga oid rivoyatlarni keltirmay, Qur'onni tasavvufiy sharhlashga e'tibor qaratishiga ko'ra, uni Movarounnahrda Qur'onni o'ziga xos tasavvufiy sharhlash yo'nalishini boshlab bergan olim deyish mumkin.

“Tahsil nazoir al-Qur'on” asarida asosiy g'oya – Qur'on karim lafzlarida ko'p ma'nolilik bor, lekin to'liq bir xil ma'noli so'zlar yo'q. So'z o'z o'rnida muayyan ma'noga ega, garchi turli ma'nolarga yo'nalsa ham, aniq ma'nolarga dalolat qilsa ham, Qur'on karimda xar bir lafz belgilangan o'rnidagi bir ma'no uchun mustahkam bog'langan [14]. Hakim Termiziyning tafsir asarini o'ziga hos jihatlari ko'p. Masalan, u keyinchalik uslub jihatdan Movarounnaxr tafsir maktabining asosini shakllantirishda katta o'rin tutgan. U ilgari surgan g'oyalarga ko'ra, eng yaxshi sifatlar — Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarni adolat bilan sharhlash; fiqh masalalariga g'oyatda maqbul, mantiqiy nuqtai nazardan yondoshuvchi kishilar — bular faqat mutasavviflar degan xulosaga keladi. Ayni vaqtda alloma bunday vaziyatlarda ehtirolarga berilmay, beg'araz, xolisona yo'l bilan yondoshish orqali islomga beminnat xizmat qilish mumkin deydi

XULOSA

Xulosa o'rnida, ishoriy tafsirlar ilk islom davrida mavjud bo'lgan. Oyatlarni zohiriy ma'nolari bilan birga, botiniy ma'nolarini ham borligi hadislardan ma'lum. Botiniy ma'nolari sharhlashda qarama qarshiliklar vujudga kelib, ishoriy tafsirlar borasidagi aytilgan salbiy fikrlar bu uslubni qonun-qoidalar orqali tartibga solishga sabab bo'ldi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Islom ensiklopediya. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 228-bet
2. Maqsudov D. Tafsir ilmiga kirish. – Toshkent: Qaqnus media. 2019. – B.138.
3. Maqsudov D. Movarounnahr hanafiylik mazhabii tafsirining qiyosiy tahlili. – Toshkent: – B. 203.
4. Najmiddin Kubro at-Ta'vilot an-najmiya. Taxqiq Ahmad Farid Mazidiy. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya.2009. J.1. – B. 20.
5. Abdullaev A. Abu-l-lays as-Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o‘rni. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent, 2007. – B. 33.
6. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2016. – 624 b.
7. Tafsiri Hilol / Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va qo‘shimcha qilingan ikkinchi nashr. VI jildda. – T.: Movarounnahr
8. Tafsiri Irfon, 3-4-5-6-juzlar. Tarjima va tafsir muallifi Muftiy Usmonxon Alimov.– T.:«Sharq», 2013. – 352 b.
9. Najmiddin Kubro. “At-Ta'vilotun najmiya fi-t-tafsiril ishoriyis sufii” (Aloudd davla Ahmad ibn Muhammad as-Simmoniy. Aynul hayot) / tahqiq: Shayx Ahmad Farid al-Mazidiy. J. 6. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2009.
10. юн. allegoria — (o‘zgacha ifodalash, kinoya, qochirim) — badiiy tasvir, obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea va hodisa orqali ifodalash.
11. Abjad hisobi — arab alifbosidagi xarflar vositasi bilan ifodalangan sonlar asosidagi xisob. Arab yozuvida mavjud bo‘lgan xar bir xarf raqam singari son ma'nosini xam ifodalaydi. Bu o‘rinda arab grafikasidagi xarflar zahirida muayyanlashgan raqamlarni esda tutish zarurki, bular abjad xisobi bo‘yicha, ta'rix she'riy san'atida, binolardagi naqshinkor yozuvlar tarkibida muayyan sanalarni so‘z yoki so‘z birikmasi tarkibida yashirib ifodalashda ishlatiladi
12. Al-Hakim at-Termiziy. Al-furuq va man' at- taroduf – Ajuza: Maktaba al-Imam, 2005.
13. Qarang: Ibrohim Usmonov, “Hakim Termiziyning lug‘atshunoslikka oid qarashlari” maqola <https://termiziy.uz/uz/news/1484>
14. Qarang: 11.-ص 1975 “مطبعة السعادة” التحصيل نظائر القرآن للحكيم الترمذی

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000